
YANGI CHORVA BOZORI QURILMOQDA

Olimjon Xaydarov telegram kanalida e'lon qilingan "Molbozoriga qo'shni yashayotgan Farg'onalik(Rishton)lar" nomli murojaat yuzasidan Rishton hokimligi Axborot xizmati quyidagilarni ma'lum qiladi.

Maqolada qayd etilganidek, "Rishton chorva" bozori Avazboy qishlog'ida emas, aksincha M. Topvoldiev mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan bo'lib, bu yerda 10 ta ko'p qavatli uy joylar hamda "Ruso'zbekteks" qo'shma korxonasi qarashli fabrika qurilishi rejalashtirilgan. Ayni damda ko'p qavatli uy joylarning 5 tasi foydalanishga topshirilishga tayyor, qolganida qurilish ishlari davom etmoqda.

Chindan ham bu yerga uylar qurilishidan avval hududda chorva bozori bo'lgan, uylar qurilishni boshlagach, uylar bitsa, tuman hokimligi ushbu bozorini boshqa joyga ko'chirib berishga va'da bergan.

Bundan bir necha oy oldin tuman hokimligi chorva bozorini boshqa hududga ko'chirish bo'yicha amaliy ishlarni boshlab yuborgan. Ayni damda "To'raobod" MFY hududida ko'chirilishi rejalashtirilayotgan yangi chorva bozorida qurilish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

Qurilish ishlari yakunig yetgach, chorva bozori aholi uchun qulay bo'lgan sharoitda faoliyat yuritadi.

2022-09-27 08:15:59